

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**USNATDINOVA ELMIRA FAXRATDINOVNA**

**TURLI TOLAVIY TARKIBLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ  
TO‘QIMALARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomahyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Usnatdinova Elmira Faxratdinovna**

Turli tolaviy tarkibli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish  
texnologiyasini takomillashtirish.

3

**Уснатдинова Эльмира Фахратдиновна**

Совершенствование технологии производства  
двухслойных трикотажных полотен с различным  
сырьевым составом

25

**Usnatdinova Elmira Fakhratdinovna**

Improvement of the technology for producing double-layer  
knitted fabrics with different raw material compositions

49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works**

54

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**USNATDINOVA ELMIRA FAXRATDINOVNA**

**TURLI TOLAVIY TARKIBLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ  
TO‘QIMALARINI OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomahyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2026**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6234 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Abduraximova Fazilat Abdullayevna</b> texnika fanlari nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich</b> texnika fanlari doktori, professor <b>Usmonqulov Sharofjon Qodirqulovich</b> texnika fanlari falsafa doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Jizzax politexnika instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «30» aprel soat «10<sup>00</sup>» dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent sh. Shohjahon ko'chasi, 5, tel. (+99871)-253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 291-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent sh. Shohjahon ko'chasi, 5, tel. (+99871)-253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 14-aprel kuni tarqatildi.  
(2026 yil 14-aprel № 291-raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.X.Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon to‘qimachilik sanoatida trikotaj matolar o‘zining yuqori cho‘ziluvchanligi, yumshoqligi, elastikligi va ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar ularni turli sohalarda keng qo‘llash imkonini beradi. Xususan, trikotaj matolar kundalik kiyim-kechak ishlab chiqarishda, uy to‘qimachiligi mahsulotlarida, shuningdek, texnik yo‘nalishlarda, jumladan filtrlash tizimlari, tibbiyot va jarrohlik materiallari ishlab chiqarishda tobora keng qo‘llanilmoqda. So‘nggi yillarda global miqyosda trikotaj mahsulotlariga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilda jahon trikotaj mahsulotlari bozori hajmi 32,4 milliard AQSh dollariga yetishi va kelgusi yillarda ham barqaror o‘shish sur‘atini saqlab qolishi kutilmoqda. Bunga asosiy omillar sifatida aholining qulay, yengil va funksional kiyimlarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi, sport va faol turmush tarzining ommalashuvi, shuningdek, ekologik toza va innovatsion materiallarga qiziqishning kuchayishi xizmat qilmoqda. To‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham trikotaj matolar bozori kengayishining muhim omillaridan biridir. Trikotaj texnologiyasining takomillashuvi trikotaj matolarining qo‘llanilish sohasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda turli xomashyolar asosida trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiiy xomashyolardan oqilona foydalanish, bambuk, paxta PAN va viskoza iplaridan foydalanish chegarasini kengaytirish, trikotaj mahsulotlarining yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda turli tolaviy tarkibli ikki qatlamli trikotaj to‘qimachilikni olish texnologiyasi kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yangi tuzilishga ega ikki qatlamli trikotaj to‘qimachilikni bambuk, paxta, PAN va viskoza iplari asosida ishlab chiqarish hamda to‘qima tarkibida iplarning miqdorini ularning texnologik parametrlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” strategiyasida, jumladan, “Mahaliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, trikotaj yo‘nalishida import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan mahalliy xomashyo resurslari asosida trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyo sarfini kamaytirish, trikotaj sifatini oshirish, to'qimalar tuzilishi va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha bir qator chet el olimlari E.P.Pospelov, A.C.Dalidovich, L.A.Kudryavin, O.P.Fomina, E.B.Xabarova, I.V.Abakumova, V.A.Zinov'eva, David J. Spencer, Asta Bivainte, Sakthi, K.Saneetha va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Trikotaj to'qima assortimentini kengaytirish, ularning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish yo'nalishi bo'yicha Respublikamiz olimlaridan M.M.Muqimov, B.Mirusmanov, N.R.Xanxadjayeva, K.M.Xoliqov, T.Q.Allamuratova, G'.Sh.Allaniyazov X.A.Xazratqulov, M.M.Musayeva, Sh.Q.Usmonqulov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Trikotaj mashinalarida ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usuli va tuzilishiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini tarkibidagi xomashyolarni to'qimalarning texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga, foydalanilayotgan iplarning chiziqli zichliklarining va to'qima tarkibida ularning miqdorini tahlili bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari to'liq va ohirigacha olib borilmagan. Ushbu holat paxta, bambuk, PAN va viskoza iplaridan ikki qatlamli yangi tuzilishli trikotaj to'qimasini yaratish va iplarning chiziqli zichliklarining to'qima tarkibidagi miqdoriga oid ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga asos bo'ldi.

**Tadqiqotning maqsadi** turli tolaviy tarkibli aralash ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasini texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida paxta, PAN, bambuk va viskoza iplaridan foydalanib ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini yangi turlarini qo'shimcha ipsiz to'qish usulini takomillashtirish;

trikotaj to'quv mashinasida paxta hamda PAN iplari bilan bambuk va viskoza iplarini aralashtirib to'qilganda trikotajni texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga iplarni chiziqiy zichliklarini ta'sirini tahlil qilish va asoslash;

bambuk va viskoza iplarini paxta hamda PAN iplari bilan aralashtirib to'qilganda mashinaning to'qish tizimida berilayotgan iplarning taranglik kuchlarini trikotajni xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillarini nazariy asoslash;

paxta hamda PAN iplari bilan bambuk va viskoza iplarini aralashtirib to'qilganda iplarni chiziqiy zichliklarini va to'qima tarkibida ularni joylari

o'zgartirilganda trikotajni sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi xususiyatlarini tahlil qilish va asoslash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** paxta, bambuk, PAN va viskoza iplaridan olingan yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy, eksperimental, hisoblash matematikasi usullari, kompleks baholash, nazariy mexanika va amaliy matematika usullaridan foydalanilgan.

Tajribaviy tadqiqotlar ishlab chiqarish sharoitida "LONG XING" LXA-252 (Xitoy) rusumli yassi ikki ignadonli mashinalarda, shuningdek TTYSI qoshidagi sinov laboratoriyasida, "O'zbek-Korea o'quv-amaliy to'qimachilik technopark"ida, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi "To'qimachilik mahsulotlari ilmiy tadqiqot laboratoriyasi va "O'zbek-Turk Test Markazi" sinov laboratoriyalarining zamonaviy asbob-uskunalarida o'tkazilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

paxta, PAN, bambuk va viskoza iplaridan foydalanib yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasini texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini qatlamlarini qo'shimcha ipsiz asos halqalarini o'zi bilan birlashtirish usuli takomillashtirilgan;

paxta hamda bambuk iplarini aralashtirib ikki qatlamli trikotaj to'qimalari to'qilganda trikotajni texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'siri iplarni chiziqiy zichliklarini o'zgartirilishi bilan asoslangan;

bambuk va paxta iplari bilan aralashtirib to'qilganda mashinaning to'qish tizimida berilayotgan iplarning taranglik kuchlarini trikotajni tarkibidagi halqa o'lchamlariga ta'sir etish bo'yicha bog'lanishlar ishlab chiqilgan;

paxta va bambuk iplarini aralashtirib to'qilganda iplarni chiziqiy zichliklarini va to'qima tarkibida ularni joylari o'zgartirilganda trikotaj xususiyatlarini uning ko'rsatkichlariga bog'lanishlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bambuk va paxta iplaridan hosilali glad asosidagi pressli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usuli ishlab chiqilgan;

olingan trikotaj to'qimalarini sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan variantlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish orqali bolalar, ayollar va erkaklar yengil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprotatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, shuningdek, natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularni ko'rib chiqilgan fan sohasidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslashga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta-bambukli yangi tuzilishli hosilali glad asosidagi pressli trikotaj to'qimasini olish usulini ishlab chiqish, to'qima tarkibidagi xomashyolarning

trikotajni texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'siri aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati yassi ikki ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, sifat ko'rsatkichlari yuqori, buraluvchanligi bartaraf etilgan yangi tuzilishdagi paxta-bambukli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Trikotaj mashinalarida yangi tuzilishli paxta-bambukli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

bambuk va paxta iplaridan hosilali glad asosida pressli biriktirilgan yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimasini olish texnologiyasi "KNITTING ART TEX" MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2026 yil 15-yanvardagi № 02/06-71 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bambuk-paxtali trikotaj to'qima turlarining ko'payishi bu to'qimalardan bolalar, ayollar va erkaklar ustki trikotaj mahsulot assortimentlarini ishlab chiqarishni 3-5% ga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 7 ta ilmiy – texnik anjumanlarda, shu jumladan 3 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shu jumladan xorijda 2 ta maqola nashr etilgan, 1 ta foydali modelga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining patenti olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llagan muassasalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

**Birinchi bob** adabiyot manbaalarining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, xususan trikotaj texnologiyasi, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish usuli, to'qimalarning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga oid adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqolalar o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan. Bu yo'nalishda ko'pgina masalalar ijobiy hal etilgani ko'rsatilgan, trikotaj ishlab chiqarishning turli usullari, qo'shimcha moslamalar va mexanizmlar, to'qish jarayoni ketma ketligi, trikotaj mahsulotlarning sifatini oshirish yo'llari tavsiya qilingan.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini tarkibidagi xomashyolarni to'qimalarning texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga, foydalanilayotgan iplarning chiziqli zichliklarining va to'qima tarkibida ularning miqdorini tahlili bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari to'liq va ohirigacha olib borilmagan. Shuning uchun mazkur dissertatsiya ishida yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish, ularning xususiyatlarini o'rganish va amaliy tajribani umumlashtiruvchi ilmiy asoslarni yaratish vazifasi qo'yilgan.

Dissertatsiyaning "Yassi ikki ignadonli mashinalarda trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish" deb nomlangan **ikkinchi bobida** ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olishda foydalaniladigan iplarning fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq qilish, yassi ikki ignadonli trikotaj mashinalarning texnologik imkoniyatlaridan foydalanib paxta, bambuk, PAN va viskoza iparidan ya'ni aralash tarkibli iplardan ikki qatlamli trikotaj to'qimalari ishlab chiqish, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining assortimentini kengaytirish va trikotaj to'qimasida yuzaga kelgan buraluvchanlikni bartaraf etish uchun yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimasini olish usulini takomillashtirishdan iborat.

Trikotaj to'qimalarini to'qishdan avval ishlatiladigan xomashyoning sifatini bilishimiz kerak. Trikotaj to'qish uchun ipni tanlash ipning tarkibi va xususiyatlaridan tashqari yakuniy mahsulotning tashqi ko'rinishi va sifati, mato dizayni, iste'molchining talabi, trikotaj mashinasining turi, o'lchami va boshqada ko'plab omillarga bog'liq.

Bugungi kunda, respublikamiz korxonalarida asosan trikotaj mahsulotlari faqat paxtadan olinyapdi. Bu esa to'qima va mahsulot turlarini chegaralab qo'yyapdi. Shu mahsulot turlarini kengaytirish maqsadida paxta va bambuk xomashyosidan foydalandik.

Trikotaj matolar ishlab chiqarishda turli xil iplar - tabiiy, kimyoviy va aralash tolalardan foydalaniladi. Ayniqsa, paxta ipi yuqori gigroskopiklik, yumshoqlik va havoni o'tkazish qobiliyati tufayli keng qo'llanadi. Bambuk tolasi tabiiy antibakterial

xususiyatlari, ekologik tozaligi va namlikni tez singdirishi bilan ajralib turadi. Poliakrilonitril (PAN) tolasi esa issiqlikka chidamliligi, shaklni ushlab turish qobiliyati hamda junga o'xshash yumshoqligi sababli trikotaj buyumlarda, ayniqsa qishki kiyimlarda keng ishlatiladi. Shuningdek, viskoza tolasi tabiiy tolalarga xos gigienik va estetik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, trikotaj matolarga ipakdek jilolilik va yuqori darajadagi qulaylik baxsh etadi.

To'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish uchun asosiy tsellyuloza tolasi bo'lgan paxta o'zining ajoyib xususiyatlari tufayli ming yillar davomida eng muhim to'qimachilik tolasi ekini bo'lib kelgan. Biroq, umumiy paxta etishtirish katta intensiv sug'orishni va ko'p miqdorda noorganik o'g'it va pestitsidlarni talab qiladi. So'nggi paytlarda yanada qulay va ekologik toza mahsulotlarga talab ortib bormoqda va ularni qondirish uchun to'qimachilik sohasidagi tadqiqotchilar qayta tiklanadigan va biologik parchalanadigan manbalar va ekologik toza jarayonlarga e'tibor qaratmoqdalar.

Paxtaga muqobil ravishda so'nggi o'n besh yillikda qayta tiklangan bambuk sellyuloza tolalari o'rganilgan. Tabiiy tolali o'simliklar orasida bambuk o'zining ko'p qirrali qo'llanilishi va uni yetishtirish uchun juda oz resurs talab qilgan holda atrof-muhitga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi tufayli eng mashhur hisoblanadi. Mazkur ishda foydalanilayotgan paxta, bambuk, PAN va viskoza iplarining fizik-mexanik xususiyatlari tadqiq qilinganda quyidagi natijalar olingan (1-jadval).

**1-jadval**

### Iplarning fizik-mexanik xossalari


Ko'rsatkichlari	Paxta kalava ipi	Bambuk kalava ipi	PAN ipi	Viskoza
Chiziqiy zichligi, teks	20	20	20	20
Buramlar soni, bur/m	840,66	833,83	811,15	836,09
Maksimal uzilish kuchi, sN	285	345,52	337	330
Nisbiy uzilish kuchi, cN/tex	14,25	17,27	16,85	16,5
Uzilishgacha bo'lgan cho'zilish, %	6,76	13,23	12,26	13,60

O'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, paxta, bambuk, PAN (poliakrilonitril) va viskoza iplarining fizik-mexanik xususiyatlari ularning tolaviy tarkibi va buram miqdoriga bog'liq holda sezilarli farq qiladi. Buramlar sonining oshishi iplarning yaxlitligi va tolalarning bir-biriga mahkam bog'lanishini kuchaytirib, maksimal uzilish kuchi va nisbiy mustahkamlikning ortishiga olib kelgani kuzatildi.

Paxta ipi nisbatan kamroq mustahkamlikka ega va uzilishdagi cho'zilish darajasi pastroq bo'ldi. Bambuk ipini esa elastikligi va cho'ziluvchanligi yuqori bo'lib, paxtaga nisbatan yumshoqroq va gigienik jihatdan afzal natija berdi. PAN ipi yuqori cho'ziluvchanlik va mustahkamlikni uyg'unlashtirgan bo'lib, sintetik iplar orasida eng barqaror ko'rsatkichlarni berdi. Viskoza ipi esa paxta ipiga nisbatan

yuqoriroq nisbiy uzilish kuchiga ega bo‘lib, shu bilan birga cho‘ziluvchanligi ham yuqori natija ko‘rsatdi, ammo PAN va bambuk iplariga qaraganda nisbatan pastroq mustahkamlikni namoyon etdi.

Xitoyning “LONG XING” firmasida ishlab chiqarilgan LXA-252 rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasida paxta, bambuk, PAN va viskoza iplaridan aralash ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining 3 ta varianti to‘qib olindi. Olingan to‘qimalarning tuzilishi va grafikli yozuvlari 1 - rasmda keltirilgan. Shuni takidlash lozimki, olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini 3 ta variantini tuzilishi bir xil bo‘lib, uning 3 ta variantlari bir biridan to‘qima tarkibidagi halqa qatorlari tarkibi turlicha bo‘lgan iplardan hosil qilinganligi bilan farqlanadi.



**1-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi tuzilishi va grafik yozuvi**

Matolarda buralishning mumkin bo‘lgan mexanizmlaridan biri iplarning qoldiq kuchlanishlaridir. Ipni egish va burash orqali mexanik energiya to‘planadi. Ip o‘zaro bog‘langan va o‘z-o‘zidan siqilgan bo‘lib, kontakt ikki yo‘nalishda: gorizontal yo‘nalishda va vertikal yo‘nalishda moment hosil qiladi. Halqadagi ichki kuchlanishlar to‘qimaning chetini bog‘lab, trikotajni jingalak qiladi.




**2-rasm. Trikotaj to‘qimalarining buralishi**

Trikotaj to‘qimalarining buralishi masalasi to‘qimachilik ilmiy tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. Chunki bu hodisa trikotaj matosining tashqi ko‘rinishi, geometrik barqarorligi va ekspluatatsion xususiyatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yengil sanoat mahsulotlarida matoning buralib ketishi mahsulot dizaynini buzibgina qolmay, balki uning amaliy qiymatini ham pasaytiradi. Shu sababli, trikotaj tuzilmasining ilmiy jihatdan o‘rganilishi va buralish sabablari hamda ularni kamaytirish bo‘yicha samarali yechimlar ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.


Paxta, bambuk, PAN va viskoza iplaridan olingan old tomoni glad va orqa tomoni press bo‘lgan ikki qatlamli to‘qimada bo‘ylamasiga ichkariga tomon buralib

ketish hodisasi yuzaga keldi. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida yangi tuzilishli trikotaj to‘qimasi 8 ta qatordan iborat va hosilali glad va press to‘qimasi ikki tomonga 2 tadan teng taqsimlangan yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi yaratildi va ularni takomillashgan olish usuli ishlab chiqilgan.



**3-rasm. Hosilali glad asosida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini tuzilishi (a) va grafikli yozuvi (b)**

Paxta va bambuk iplaridan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi yangi assortimenti ishlab chiqildi va 4 ta varianti to‘qib olindi (3-rasm).




**4-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining grafik yozuvlari**

Ikki qatlamli trikotaj hosilali glad asosida va qatlamlarini biriktirish uchun press yarim halqasidan foydalanildi, ya’ni qo‘shimcha ip qo‘yilmasdan asosiy halqa iplari bilan birlashtirildi.

Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining I-variant 20 teks x 2 paxta ipidan, II-variant 20 teks x 2 bambuk ipidan, III-varianti 20 teks x 2 paxta va 20 teks x 2 bambuk ipidan aralash holda, IV-varianti 20 teks x 2, 20 teks x 3 paxta va 20 teks x 2, 20 teks x 3 bambuk iplaridan to‘qib olingan.

Shunday qilib, yangi tuzilishli hosilali glad asosida pressli biriktirilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olish natijasida trikotajning buraluvchanligi bartaraf etilgan.

Trikotaj to‘qimalardan halqalarni hosil qilishda takomillashgan to‘qimalarni hosil bo‘ladigan kuchlar natijalariga uzayishini dastavval quyidagi rasmda shakllantirilgan halqalardan foydalanib aniqlaymiz.



### 5-rasm. Ikki qatlamli trikotaj halqasida hosil bo‘lgan kuchlar sxemasi

bu yerda: A nuqtasini Q-halqani cho‘zilishdagi vertikal kuch;  $T_a$ ,  $T_b$ -taranglik kuchlari;  $F$ -halqani cho‘zilishdagi gorizontaal kuch;  $\alpha, \beta$ -gorizontaal va vertikal kuchlarni o‘zaro bog‘liqligi og‘ish burchaklari;  $S$ -yuza,  $h_1$ ,  $h_2$  – halqalarni egilishidagi cho‘zilishi.

Trikotaj to‘qimalarini halqa hosil qilishdagi ta’sir qiluvchi kuchlarni aniqlaymiz. Halqani cho‘zilishdagi  $Q$ - vertikal kuch, qiya halqalarda hosil bo‘ladigan taranglik kuchlarini  $T_a$  va  $T_b$  deb belgilab olamiz. Gorizontaal cho‘zilishdagi kuchni  $F$  deb qabul qilamiz. Halqalarni egilishidagi cho‘zilishini  $h_1$  va  $h_2$  bo‘lsin.

Halqani hosil qilishdagi gorizontaal va vertikal kuchlarni o‘zaro bog‘liqligini og‘ish burchagi orqali ifodalaymiz.

$$tg\alpha = \frac{S_1 q_1}{F_1}; tg\beta = \frac{S_2 q_2}{F_2} \quad (1)$$

Bu kuchlarni o‘zaro o‘zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$tg\alpha = \frac{dy}{dx} \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamadan gorizontaal va vertikal kuchlarni o‘zgarishidan quyidagilarni aniqlaymiz

$$\frac{dy}{dx} = \frac{S_1 q_1}{F_1}; \quad \frac{dy}{dx} = \frac{S_2 q_2}{F_2} \quad (3)$$

(3) tenglamani ikki qatlamli trikotaj to‘qimalardagi halqa hosil qilishdagi kuchlar ta’siridagi cho‘zilishni o‘zgarishini ifodalaydi.


Ikki qatlamli trikotaj to‘qima halqalarini yoy bo‘ylab cho‘zilishidagi taranglik kuchlarini gorizontaal va vertikal kuchlar bo‘yicha bog‘liqlik ifodasini aniqlaymiz.

$$\begin{cases} \sum_{i=1}^h F_{iy} = 0 \\ \sum_{i=1}^h F_{ix} = 0 \end{cases} \begin{cases} T_A \sin \alpha + T_B \sin \beta - S_1 q_1 - S_2 q_2 = 0 \\ T_A \cos \alpha - T_B \cos \beta + F_1 + F_2 = 0 \end{cases} \quad (4)$$

(4) ifoda halqa hosil qilishda trikotaj to‘qimasida kuchlar ta’sirida holatini saqlab turadigan kuchlar hisoblanadi. Bu tenglamalardan halqadagi taranglik kuchlarini aniqlaymiz. (4) tenglamada  $T_A$  va  $T_B$  taranglik kuchlari natijada (4) tenglik quyidagicha aniqlaymiz.


$$\begin{cases} T_A = \frac{(S_1 q_1 + S_2 q_2) \cdot \cos \beta - (F_1 + F_2) \cdot \sin \beta}{\sin(\alpha + \beta)} \\ T_B = \frac{(S_1 q_1 + S_2 q_2) \cdot \cos \alpha + (F_1 + F_2) \cdot \sin \alpha}{\sin(\alpha + \beta)} \end{cases} \quad (5)$$

(5) tengliklar yoy bo‘ylab halqadagi A va B nuqtalaridan taranglik kuchlarini ifodalaydi. Bu tenglamalardan takomillashgan trikotaj halqasini to‘qishda og‘ish burchaklarini o‘zgarishi hisobiga taranglik kuchini tahlilini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlillarni keltiramiz.



**6-rasm. Vertikal kuch ta’sirida**

$Q_1 = 20cH$   $Q_2 = 30cH$   $Q_3 = 40cH$  og‘ish burchagiga bog‘liqlik grafigi



**7-rasm. Gorizantal kuch ta’sirida**

$F_1 = 15cH$   $F_2 = 25cH$   $F_3 = 35cH$  og‘ish burchagiga bog‘liqlik grafigi

A nuqtasiga vertikal taranglik kuch bilan ta’sir etganda 50 sN muvozanat holatda bo‘ladi, bu qiymat oshganda halqaning muvozanat buziladi, ya’ni halqa uziladi.

B nuqtasiga gorizantal kuch 60 sN ga halqa muvozanat holatda, ammo undan oshsa bu muvozanat buziladi, halqa uziladi.

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan shuni ta’kidlash kerakki takomillashgan trikotaj to‘qima halqalari biror burchaklar bo‘yicha o‘zgarishini halqani gorizantal va vertikal cho‘zish natijasida ta’sir qiluvchi kuchlarni ta’siridagi A va B nuqtalaridagi taranglik kuchini eng yuqori qiymatlari aniqlangan halqani gorizantal va vertikal cho‘zish natijasidan og‘ish burchagi  $\alpha = 0 \div 30^\circ$  gacha va taranglik kuchini oshishi aniqlangan. Bevosita taranglik kuchi halqaning uzayishidagi uzilish kuchini ham ifodalaydi.

Dissertatsiyaning “Ikki qatlamli yangi tuzilishli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiqoti” deb nomlangan **uchinchi bobi** paxta, bambuk, PAN, viskoza iplaridan olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari va hosilali glad asosida olingan pressli biriktirilgan yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini o‘zgarishi tadqiq etilgan.

## 2-jadval

### Aralash tola tarkibli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		Variantlar		
		I	II	III
Iplarning turi va chiziqli zichligi, teks	Old qatlam	Bambuk 20 teks x 2	Paxta 20 teks x 2	Viskoza 20 teks x 2
	Orqa qatlam	PAN 20 teks x 2	PAN 20 teks x 2	PAN 20 teks x 2
Trikotaj to‘qima qatlamlarini biriktirish turi		Pressli birikish	Pressli birikish	Pressli birikish
Halqa qadami, A (mm)		1,85	1,72	1,78
Halqa qatori balandligi, B (mm)		1,04	0,98	1,0
Gorizontal bo‘yicha zichlik, Pg		27	29	28
Vertikal bo‘yicha zichlik, Pv		48	51	50
Halqa ipi uzunligi, mm		8,2	8,0	7,9
Mato yuza zichligi $M_s$ , gr/m <sup>2</sup>		322,5	329,5	340,2
Qalinlik, T (mm)		1,2	1,2	1,2
Mato hajmiy zichligi $\delta$ (c)		268,7	274,6	283,5
Haqiqiy hajmiy yengillik, $\Delta\delta_{n,y}$ mg/sm <sup>3</sup>		5,9	-	-8,9
Haqiqiy nisbiy yengillik $\theta$ %		-2,2	-	3,14

Paxta, bambuk, PAN va viskozali ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining tuzilishi va foydalanilgan iplarning chiziqli zichliklari bir xil bo‘lganligi sababli texnologik ko‘rsatkichlari deyarli bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni berdi lekin ayrim texnologik ko‘rsatkichlari har xil natijani ko‘rsatdi.

Gorizontal bo‘yicha zichlik I-variant 27 ta, II-variant 29 ta va III-variantlarda 28 tani tashkil qildi.

Vertikal bo‘yicha zichlik I-variant 48 ta, II-variant 51 ta va III – variantlarda 50 tani tashkil qildi.

To‘qima tuzilishi, iplarning chiziqli zichliklari bir xil bo‘lishiga qaramay, xomashyo turi o‘zgarishi aralash ikki qatlamli to‘qimalarning gorizontal va vertikal zichliklari har xil natijani ko‘rsatdi.

Bambuk va PAN aralash ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini (I-variant)  $M_s=322,5$  gr/m<sup>2</sup> yuza zichlik va  $T=1,25$  mm qalinlikka ega bo‘lgan aralash trikotaj to‘qimasining hajm zichligi 268,7 mg/sm<sup>3</sup> ni tashkil etgan bo‘lsa, u holda 329,5 gr/m<sup>2</sup> yuza zichlikka va 1,3 mm qalinlikka ega bo‘lgan paxta / PAN to‘qimasining hajm

zichligi  $274,6 \text{ mg/sm}^3$  ga teng bo'ladi, haqiqiy hajmiy yengillik asos to'qima bilan qiyoslanganda  $5,9 \text{ mg/sm}^3$  ni tashkil etadi, nisbiy yengillik esa  $2,2\%$  ni tashkil etadi.


Xulosa qilib aytganda, tuzilishi bir xil bo'lgan faqat xomashyo turi bilan farqlanadigan aralash ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining bambuk/PAN to'qimasini paxta / PAN va viskoza / PAN to'qimalariga nisbatan hajm zichligini kamaytirishga erishish mumkin.

### 3-jadval


#### Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		Variantlar				
		I	II	III	IV	
Iplarning turi va chiziqli zichligi, teks	Old qatlam	Paxta 20 teks x 2	Bambuk 20 teks x 2	Paxta 20 teks x 2	Paxta 20 teks x 2	Paxta 20 teks x 3
	Orqa qatlam	Paxta 20 teks x 2	Bambuk 20 teks x 2	Bambuk 20 teks x 2	Bambuk 20 teks x 2	Bambuk 20 teks x 3
Xomashyo turi va miqdori (%)	Paxta	100	-	51,1	49,8	
	Bambuk	-	100	48,9	50,2	
Trikotaj to'qima qatlamlarini biriktirish turi		Pressli birikish	Pressli birikish	Pressli birikish	Pressli birikish	
Halqa qadami, A (mm)		1,66	1,61	1,61	1,56	
Halqa qatori balandligi, B (mm)		1,21	1,25	1,21	1,25	
Gorizontal bo'yicha zichlik, Pg		30	31	31	32	
Vertikal bo'yicha zichlik, Pv		41	40	41	40	
Halqa ipi uzunligi		4,74	4,87	4,7	4,52	
Mato yuza zichligi $M_s$ , $\text{gr/m}^2$		325,9	349,1	357,6	480,8	
Qalinlik, T (mm)		1,4	1,3	1,4	1,7	
Mato hajmiy zichligi $\delta$ ( $\text{mg/sm}^3$ )		232,7	268,5	255,4	282,8	
Haqiqiy hajmiy yengillik, $\Delta\delta_{h,y}$ , $\text{mg/sm}^3$		-	-35,8	-22,7	-50,1	
Haqiqiy nisbiy yengillik $\theta$ %		-	13,3	8,8	17,7	

Ikki qatlamli trikotaj to'qimalari xomashyosi va chiziqli zichliklari o'zgarishi hisobiga trikotajning yuza zichligi  $325,9 \text{ g/m}^2$  dan  $480,8 \text{ g/m}^2$  gacha va hajm zichligi  $232,7$  dan  $282,8 \text{ mg/sm}^3$  gacha o'zgaradi (8, 9-rasmlar).



8-rasm. Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining yuza zichligi



9-rasm. Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining hajm zichligi

Texnologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, ikki qatlamli trikotaj variantlarini hajmiy zichlik ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘zaro qiyosiy taqqoslanganda II-1-variant 100 % paxta ipidan to‘qilgan to‘qima eng kichik hajmiy zichlik ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. II-2-variant 100 % bambuk ipidan to‘qilgan to‘qima II-1-variantga nisbatan yuqori hajm zichlikka ega bo‘ldi va II-3 variantda paxta va bambuk iplaridan aralash holda to‘qilgani uchun II-2-variantga nisbatan kam hajmiy zichlikka erishilgan (8-rasm).

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining hajmiy zichligini o‘zaro taqqoslash asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bunda II-1 variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining yuza zichligi 325,9g/m<sup>2</sup> va qalinligi 1,4 mm bo‘lganda, hajmiy zichligi 232,7 mg/sm<sup>3</sup>ni tashkil etdi. II-2 variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining yuza zichligi 349,1 g/m<sup>2</sup> va qalinligi 1,3 mm bo‘lganda, hajmiy zichligi 268,5 mg/sm<sup>3</sup>ni tashkil etdi, 357,6 g/m<sup>2</sup> yuza zichlikka va 1,4 qalinlikka ega bo‘lgan II-3 variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining hajmiy zichligi 255,4 mg/sm<sup>3</sup>, 480,8 g/m<sup>2</sup> yuza zichlikka va 1,7 qalinlikka ega bo‘lgan II-4-variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining hajmiy zichligi esa, 282,8 mg/sm<sup>3</sup>dan iborat bo‘ldi.

Yuza zichligi, M <sub>s</sub> , g/m <sup>2</sup>	Qalinligi T, mm	Hajm zichligi δ, mg/sm <sup>3</sup>
I 325,9	I 1,4	I 232,7
II 349,1	II 1,3	II 268,5
III 357,6	III 1,4	III 255,4
IV 480,8	IV 1,7	IV 282,8

10-rasm. Paxta va bambuk aralash ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining yuza zichligi, qalinligi va hajmiy zichligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Xulosa qilib aytish mumkinki, paxta va bambukdan to‘qilgan bir xil tuzilishli to‘qimaning hajm zichliklari solishtirganda 100 % paxtadan to‘qilgan I-variant

namunaning hajm zichligi II-variant 100 % bambukdan to‘qilgan namunaga nisbatan kam. Shu sababli paxta va bambukni aralashtirib to‘qish hisobidan hajm zichlikni nisbatan kamaytirish mumkin.

Trikotaj matolarning fizik-mexanik xususiyatlarini ifodalovchi mezonlar qatoriga havo o‘tkazuvchanlik, mustahkamlik va uzilishdagi cho‘zilish, bir martalik va takroriy cho‘zilishga bardoshlilik va ishqalanishga chidamlilik, shuningdek, issiq-nam muhitda ishlov berish jarayonida yuzaga keladigan kirishuvchanlik kabi ko‘rsatkichlar kiritiladi.

#### 4-jadval

#### Aralash tola tarkibli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini fizik-mexanik xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar		I	II	III	Gost bo‘yicha
Mato turi		Bambuk/PAN	Paxta/PAN	Viskoza/PAN	
Xomashyo turi va chiziqli zichligi	Old qatlam	Bambuk 20 teks x 2	Paxta 20 teks x 2	Viskoza 20 teks x 2	
	Orqa qatlam	PAN 20 teks x 2	PAN 20 teks x 2	PAN 20 teks x 2	
Havo o‘tkazuvchanlik V, (sm <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> *sek)		126,7	119,6	112,4	Gost 12088 100(dm <sup>3</sup> /m <sup>2</sup> *sek) kam emas
Ishqalanishga chidamlilik I, (sikl)		19000	18600	18500	Gost 16486-93 15000-30000 oddiy 30000-100000 must. 100000 dan yuq.juda must.
Uzilish kuchi, R, (N)	Bo‘yiga	232,4	210,1	221,3	Gost 8847 80 N dan kam emas
	Eniga	191,5	192,2	191,2	
Uzilishdagi cho‘zilishi, L, (%)	Bo‘yiga	55,8	57,3	52,7	Gost 8847 I-0-40% II-41-100% III-100% dan yuqori
	Eniga	54,0	59,9	52,4	
Qaytar deformatsiya ε <sub>o</sub> , (%)	Bo‘yiga	91	88	90	
	Eniga	89	86	88	
Qaytmas deformatsiya ε <sub>ii</sub> , (%)	Bo‘yiga	9	12	10	Gost 28882-90 20% gacha
	Eniga	11	14	12	
Kirishish U, (%)	Bo‘yiga	6,5	3,5	6,5	Gost 26667-85 6-8% ko‘p emas 8-10% ko‘p emas
	Eniga	5	5	3,5	

